
“EXPO KOLLOR PRIN TEKS” jamoasi g'alabasi

Bugun Toshkent shahrida sportning futbol turi bo'yicha (U-14) yosh toifasidagi qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionatining final bosqichiga start berildi.

Quvonarlisi ushbu musobaqalarda ishtirok etayotgan Toshloq tumanining “EXPO KOLLOR PRIN TEKS” jamoasi musobaqaning “A” guruhidan joy olib, dastlabki uchrashuvni Qashqadaryo viloyatining Sho'rtan jamoasiga qarshi o'tkazib yirik (11:0) hisobida g'alaba qozondilar.

Ushbu g'alaba bilan jamoamiz a'zolarini, murabbiylarini hamda tumanimizdagi barcha sport ishqibozlarini muborakbod etamiz.

Eslatib o'tamiz jamoamiz a'zolari musobaqaning “A” guruhida Sho'rtan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Yozyovon jamoalari bilan raqobatlashadi. Jamoamiz a'zolari 2-tur o'yinlarini 1 oktyabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasiga qarshi o'tkazadi.

2023-09-30 16:23:46